IJOBIY AXLOQIY FAZILATLARNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TAHLILI

Babaqulova Oydin Xayrullo qizi
Termiz davlat universiteti
oydinbabakulova@tersu.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada dunyo tilshunosligida turli tillarning frazeologiyasini qiyosiy tahlil qilishning nazariy va amaliy ahamiyati, xususan, ingliz va o‘zbek tillarida insonning ijobiy axloqiy sifatlarini ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqotda jahon va o‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarni semantik maydonlar, mikroguruhlar va antroposentrik yondashuv asosida tasniflash bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi yaxshilik, halollik, rostgo‘ylik, kamtarlik, vijdonlilik, mardlik, jasurlik, mulohazakorlik hamda bosiqlik kabi axloqiy fazilatlarni ifodalovchi turg‘un birikmalarning semantik guruhlari aniqlanib, ularning lingvokulturologik jihatlari ochib berildi.*

Kalit so‘zlar: *Frazeologiya, qiyosiy tilshunoslik, semantik tahlil, axloqiy fazilatlar, ingliz tili, o‘zbek tili, frazeologik birliklar, lingvokulturologiya, mikroguruh.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается теоретическое и практическое значение сопоставительного анализа фразеологии разных языков в мировом языкознании, в частности, освещаются семантические особенности фразеологических единиц, выражающих положительные моральные качества человека в английском и узбекском языках. В исследовании сравнительно анализируются научные изыскания отечественных и зарубежных лингвистов по классификации фразеологизмов на основе семантических полей, микрополей и антропоцентрического подхода. Кроме того, определены семантические группы устойчивых выражений, обозначающих такие нравственные добродетели, как доброта, честность, правдивость, скромность, добросовестность, мужество, храбрость, осмотрительность и выдержка в английском и узбекском языках, а также раскрыты их лингвокультурологические аспекты.*

Ключевые слова: *Фразеология, сопоставительное языкознание, семантический анализ, моральные качества, английский язык, узбекский язык, фразеологические единицы, лингвокультурология, микрогруппа.*

Annotation: *This article discusses the theoretical and practical significance of the comparative phraseological analysis of different languages in world linguistics, specifically focusing on the semantic features of phraseological units expressing positive moral qualities of humans in English and Uzbek. The study comparatively examines scientific research conducted in world and Uzbek linguistics regarding the classification of phraseological units based on semantic fields, micro-fields, and an anthropocentric approach. Furthermore, semantic groups of fixed expressions denoting moral virtues such as kindness, honesty, truthfulness, modesty, conscientiousness, bravery, courage, prudence, and composure in both English and Uzbek are identified, and their linguocultural aspects are revealed.*

Key words: *Phraseology, comparative linguistics, semantic analysis, moral qualities, English language, Uzbek language, phraseological units, linguoculturology, micro-group.*

Kirish

Dunyo tilshunosligida turli tillarning frazeologiyasini qiyosiy tahlil qilish o‘rganilayotgan tillarning tuzilishini chuqurroq tushunish imkonini berganligi tufayli ushbu tillarda so‘zlovchi xalqlarning madaniyati, tarixi, adabiyoti hamda urf-odatlari haqidagi bilimlarni kengroq boyitishga xizmat qiladi. Jahondagi mavjud tillarning har birida insonning yaxshilik, rostgo‘ylik, halollik, jasurlik, mulohazakorlik kabi axloqiy fazilatlari turli frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Bu birliklar esa faqat so‘zning lug‘aviy ma’nosini emas, balki uning ma’lum bir nutqiy vaziyatda ifodalayotgan ijtimoiy baho yoki ijobiy-salbiy munosabatni ham bildirganligi tufayli ularning semantik vazifasini tadqiq etish, o‘rganilayotgan tillarning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy va muloqot etiketini anglashda muhim ahamiyatga egadir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi insonning axloqiy sifatlarini ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik tahlili haqida gap borar ekan, avvalombor, semantik tahlilning o‘zi nima va aynan frazeologik birliklarni qaysi jihatdan tahlil qilishda vosita vazifasini bajarishini aniqlab olish zarur. Frazeologik birliklarning semantik tahlilida ibora, maqol, matal, idioma kabi turg‘un birikmalarni ma’noviy hamda nutqdagi qo‘llanilish vazifalarini birgalikda o‘rganilish tushuniladi.

Asosiy qism

Shu o‘rinda insonning axloqiy fazilatlarini ifodalovchi frazeologik birliklarning ichki semantik guruhlarga ajratish masalasi frazeologiya, semasiologiya va lingvokulturologiya doirasida ko‘plab jahon va o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilgan. Biroq ko‘pchilik tadqiqotchilar aynan “axloqiy fazilatlar”ni emas, balki “inson xarakteri”, “inson sifatlari”, “insonning ijobiy va salbiy xususiyatlari”ni ifodalovchi frazeologik birliklarni tasniflash orqali ushbu masalani yoritganlar. Xususan, rus tilshunosi A.V.Kunin o‘zining “Курс фразеологии современного английского языка” nomli fundamental darsligida ingliz tilidagi frazeologik birliklarni tizimlashtirish maqsadida frazeologik semantika hamda mikromaydonlar nazariyasini ilgari suradi. Unga ko‘ra, inson harakteri va uning axloqiy qirralarini ko‘rsatuvchi frazeologik birliklar guruhlarga ajratilib berilgan. Jumladan, A.V.Kunin antroposentrik frazeologik birliklarni insonning xarakteri, axroqi, intellekt, ya’ni aqliy, hissiy holatiga ko‘ra mikroguruhlarga ajratib o‘rganish nazariyasini ilgari surgan [1].

Tilshunos V.V.Vinogradov esa frazeologik birliklarni struktur va semantik jihatidan tahlil qilib, inson xarakteri va axloqiy sifatlarni ifodalovchi frazeologik birliklarni alohida semantik maydon sifatida tasniflaydi [2]. Yana bir rus tilshunosi N.N.Amosova o‘z tadqiqot ishlarida frazeologik birliklarni ma’no markazlari asosida tasniflashni taklif etgan hamda insonning axloqiy va ruhiy sifatlarini ifodalovchi birliklarni alohida leksik-semantik guruhlarga ajratib o‘rgangan [3]. Ingliz tilshunosi L.P.Smit ham o‘z tadqiqotlari doirasida “Words and idioms” qo‘llanmasini yozgan hamda ushbu asarida ingliz tilidagi frazeologik birliklarning semantik holatini va ularning inson tabiatini yoritishdagi ishtirokini tahlil qilib, insonning axloqiy fazilatlari, jamiyatdagi mavqeyi va xulq-atvorini baholovchi birliklarni alohida mavzuiy guruhlar sifatida ajratib, ularning semantik tahlilini muhokama qilgan [4]. Xitoylik tilshunos J.Vang esa rus va xitoy tillaridagi inson xarakterini ifodalovchi frazeologik birliklarni semantik jihatdan qiyoslar ekan, ularni ijobiy va salbiy axloqiy sifatlar bo‘yicha ichki guruhlarda tasniflaydi [5]. Qozoq tilshunosi E.N.Azharbekova ham inson sifatlarini ifodalovchi frazelogik birliklarni ijobiy, salbiy hamda neytral baholovchi guruhlarga ajratib, har biri bo‘yicha ichki semantik guruhlarda tahlil olib borgan. Muhokama etilayotgan masala bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida ham salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, tilshunos Sh.Rahmatullayev o‘zining “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” hamda “Hozirgi o‘zbek tili” nomli darsligida frazeologik birliklarni semantik va mavzuiy maydonlar jihatidan tasniflagan va insonning axloqiy sifatlarini saxiylik, halollik, mehnatsevarlik, dangasalik, ayyorlik kabi guruhlarga ajratgan [6]. A.Mamatov esa “O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish asoslari”

nomli doktorlik dissertatsiyasida frazeologik birliklarning antroposentrik tasnifini ishlab chiqqan hamda insonning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini ifodalovchi birliklarni alohida semantik qatlam sifatida ko‘rsatib o‘tgan [7]. Bundan tashqari, G.Azamatova va M.Irmatova kabi yosh tadqiqotchilar ham o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarni ingliz va nemis tillaridagi birliklar bilan qiyosiy o‘rganishar ekan, inson fazilatlarini ifodalovchi birliklarni intellektual, axloqiy, fiziologik, parapsixologik kabi semantik guruhlarda tizimli ravishda tahlil qilishgan [8]. Tilshunos O.Uralovaning ta’kidlashicha, ona tili va boshqa tillarning ekvivalent frazeologik birliklarini bir nechta aspektlarda taqqoslash mumkin. Ulardan semantik jihatdan va frazeologizm (maqollar) so‘z-komponentlarining tematik guruhlarga mansubligi nuqtai nazaridan qiyoslash muhim o‘rin tutadi [9]. Yuqoridagi ma’lumotlarga tayangan holda, ushbu tadqiqot ishida ingliz va o‘zbek tillaridagi insonning ijobiy axloqiy sifatlarini ifodalovchi frazeologik birliklarni quyidagi kichik guruhlarda tasniflandi:

- yaxshilik va halollikni ifodalovchi frazeologik birliklar;
- rostgo‘ylik, kamtarlik va vijdonlilikni ifodalovchi frazeologik birliklar;
- mardlik, jasurlikni ifodalovchi frazeologik birliklar;
- mulohazakorlik, ehtiyotkorlik va bosiqlikni ifodalovchi frazeologik birliklar.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillarida insonning axloqiy fazilatlarini ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik tahlili ikki xalqning lingvokulturiy xususiyatlarini, milliy mentaliteti va dunyoqarashini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiq etilgan ilmiy qarashlar va tasniflar shuni ko‘rsatadiki, turli tizimdagi tillarda ham insoniy qadriyatlar, xususan, yaxshilik, halollik, mardlik va kamtarlik kabi fazilatlar universal xarakterga ega bo‘lib, ularni ifodalashda o‘ziga xos milliy-madaniy shakllar va semantik mikroguruhlar namoyon bo‘ladi. Bu esa qiyosiy frazeologiyaning yanada chuqur tadqiq etilishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kunin A.V. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1996.
2. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии // Избранные труды. Лексigologia и фразеология. – Москва, 1986.
3. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1963.
4. Smith L.P. Words and idioms. – London: George Allen & Unwin Ltd., 1943.

5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.

6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2010.

7. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish asoslari. Filol. fan. dokt. ... dis. – Toshkent, 2000.

8. Azamatova G., Irmatova M. Ingliz, o‘zbek va nemis tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili. – Toshkent, 2022.

9. Uralova O. Ona tili va qiyosiy tilshunoslik masalalari. – Samarqand: SamDU nashri, 2021.